

**PEDAGOGIKADA LEKSIK VA GRAMMATIK KO'NIKMALARNI
O'RGATISH USULLARINING AHAMIYATI**

Dehqanova Noila Mirzohid qizi

NamDPI, Pedagogika nazariyasi va tarixi

yo'nalishi magistranti

+99894 847 44 22

umrizaqovanoila@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola grammatik va leksik ko'nikmalarni shakllantirish mavzusiga bag'ishlanadi. Maqolada ko'nikmalar va uni rivojlantirish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, grammatik, leksik, mashq, shakllantirish, takrorlash, pedagogik

**ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИМ
НАВЫКАМ В ПЕДАГОГИКЕ**

Дехканова Наиля Мирзахидовна

НамДПИ, Теория и история педагогики,

магистрант

+99894 847 44 22

umrizaqovanoila@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена теме формирования грамматических и лексических навыков. В статье рассматриваются навыки и способы их развития.

Ключевые слова: навык, грамматический, лексический, упражнение, формирование, повторение, педагогика.

**THE IMPORTANCE OF METHODS OF TEACHING LEXICAL AND
GRAMMATICAL SKILLS IN PEDAGOGY**

Dehkanova Naila Mirzahidovna

NamSPI, Theory and History of Pedagogy Master's degree

+99894 847 44 22

umrizaqovanoila@gmail.com

Abstract: *This article is devoted to the topic of formation of grammatical and lexical skills. The article discusses skills and ways to develop them.*

Key words: *skill, grammatical, lexical, exercise, formation, repetition, pedagogic*

Bizga ma'lumki, kurrai zaminimizda hammasi bo'lib taxminan 5621 ta til va sheva bor bo'lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo'lmay, faqat og'zaki nutq shakliga egadir.

Jahondagi 1400 ta tilning yo'qolib ketish xavfi bor. Dunyo tillaridan faqat 40 tasigina og'zaki va yozma jihatdan mukammal shakllanib bo'lgan deb hisoblanadi. O'sha 40 tilning orasida o'zbek tili ham bor.

Shuningdek, Himolayda 160 xil til bor. Afrikaning Niger daryosi havzasida 280ta til mavjud bo'lsa, Yangi Gvineyadagi Papua davlati bu borada mutloq chempion. U yerda jami 3 million aholi 1010 xildagi til va shevada so'zlashadi.[1] Bejiz dunyodagi mavjud tillarni eslanmadiki zero, dunyoda nechta til bo'lsa, albatta shuncha ko'p til birliklari, o'ziga xos grammatik va leksik qoidalar mavjudligi shubhasiz. Vaholanki, har qanday til ma'lum bir leksik va grammatik unsurlarga bo'ysinadi. Biz ularni sodda til bilan ko'nikmalar deb ataymiz. **Ko'nikma** — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalarlar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy Ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy Ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi. [2]

Til o'rganishda pedagogik jihatdan olib qaralsa grammatik va leksik ko'nikmalarni shakllantirish alohida jarayon hisoblanadi va u shunchalik muhim bosqichki, nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, aniq va to'g'ri so'zlashga intilish bilan bog'liq. To'g'ri so'zlashga intilish grammatikaning barcha sohalari – morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda, shakllarning turli-tumanligini o'zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq.), **so'z hosil qilishda**, (non uchun – nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) **sintaksisda** (og'zaki nutq qurilmasini yengib o'tish va bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni cho'zib yuborish, bitta gapda to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish va boshq.) ko'zga tashlanadi. Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish ko'proq yetti yoshli bolalarga

xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu soʻz bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan toʻgʻri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.[3] Bu jarayonda mustahkam poydevor qoʻyishda, hikoya tinglash, uni gapirib berish va yakuda oʻz hikoyasini yaratish mashqlari grammatik va leksik koʻnikmalarni shakllantirishda juda ahamiyatli hisoblanadi. Bobo va buvilarimizga ming tashakkurki, bolalarning erta yoshdan til egasi boʻlib yetishishda katta poydevor qoʻyishadi yaʼni hikoya tuzish qismlari, mazmunan bogʻliqligi, soʻz boyligini ilmiy asoslab bermasalarda ularning ongida ketma-ketlik tarzida leksik koʻnikmalarni hosil qilishda beminnat xizmat qiladilar.

Grammatik koʻnikmalar esa asta sekin maktab davrida turli mashqlar, topshiriqlar va didaktik oʻyinlar yordamida shakllantirib rivojlantiriladi. Grammatik koʻnikmalar grammatikaning muloqotda qanday ishlatilishini bilishni anglatadi. Canale va Swain modelidagi kommunikativ kompetentsiya uchta oʻlchovni oʻz ichiga oladi: Grammatik kompetentsiya: grammatika, leksika, morfologiya, sintaksis, semantika va morfologiyani bilish demakdir.[4]

Grammatik koʻnikmalarni rivojlantirish haqida olimlarning turlicha qarashli mavjud boʻlsada azaliy doimiy har qanday metodni oʻzagini tashkil qiluvchi mashqlar borki, ular quyidagilardir:

- turli ilmiy-mmabop, publitistik va badiiy asarlarni oʻqish;
- grammatik koʻnikmalar haqida yangi fikrlardan habardor boʻlish;
- qisqacha yangilik, eʼlon, nutq yoki hikoya tuzish;
- tuzgan hikoya yoki nutqni mutaxassislar yordamida yoki tegishli saytlarda tekshirish;
- xatolar ustida ishlash;
- qayta-qayta grammatik mashqlarni bajarish.

Leksik va grammatik koʻnikmalar vaqt va maʼlum muddat davomida shakllanuvchi koʻnikmalardir va hech qanday sehr jodu birdan paydo qila olmaydi. Yuqorida taʼkidlanganidek, grammatik va leksik koʻnikmalarni shakllantirishning muqobil yechimi baribir mashq, mashq, mashq va yana takrorlash boʻlib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://geografiya.uz/bilasizmi/515-dunyoda-nechta-til-bor.html>
2. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://mbaza.uz/anywork/grammatik-konikmalarni-shakllantirish-usullari-va-yollari/>
4. <https://www.professorjackrichards.com/grammatical-knowledge-vs-grammatical-competence/>